

**BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING SAVOD CHIQRARISHIDA
ALIFBE MANZUMALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI**

Usmonqulova Sohiba Mirzohid qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarning savod chiqarish jarayonida “Alifbe”ning o‘rni va ahamiyati hamda uning yaratilish tarixi, boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarining nutqiy rivojlanishida Alifbe manzumalarining qay darajada muhimligi borasida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Alifbe, til, nutq, so‘z, gap, lug‘at, ta‘lim, tarbiya, savod chiqarish, bilim.

Ta‘lim tarbiya tizimining bugungi kundagi vazifasi o‘tib-ulg‘ayib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirgan kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini egalashga erishgan-komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Mamlakatimizda ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohatlarda umumta‘lim maktablari hal qiluvchi kuchga aylangani ayni haqiqatdir. Maktablarda kelajak avlod vorislarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan imkoniyatlar o‘z navbatida, pedagog xodimlardan sifatli ta‘lim-tarbiya berishni, o‘quvchi yoshlardan esa puxta bilim olishni talab etadi. Bu o‘z navbatida har bir o‘qituvchi zimmasiga yanada yuksak mas‘uliyat va vazifalarni yuklaydi.

Ta‘kidlaganimiz kabi harflarni bolaga zo‘raki tiqishtirishdan ko‘ra, shu harflarni obrazlarda tavsiya etish, ularni qiziqarli ko‘rinishda o‘rgatish qiziqqon bolajonlar uchun yana-da maroqli va quvnoqroq bo‘ladi. Ta‘lim va tarbiya jarayoni shunday tashkil etilganda, bolalarga bilim berishning hojati ham qolmaydi. Ularning o‘zlari bilimni sizdan tortib olishadi. Faqat buni qanday tashkil qilish ma‘qul ekanligini bila olsangiz bas.

Bola chuqur tasavvurga ega shaxs hisoblanadi. Shunday ekan savod o‘rgatish jarayonida har bir harf haqida ertak aytib berishlik bolalarni harfga nisbatan qiziqishini yanada orttiradi. Siz majburlamasangiz-da kechasi bilan bola shu harf haqida o‘ylab chiqadi. Shu harfning boshidan o‘tgan sarguzashtlari, qilgan qahramonliklari haqida hayol suradi. Jonkuyar o‘qituvchining asl maqsadi ham shu aslida. Maqsadga olib boradigan turli yo‘l va usullar turganda o‘rinsiz va eski metodlardan foydalanishga hojat yo‘q.

Boshlang‘ich ta‘lim ta‘lim-tarbiyaning poydevori hisoblanadi. Poydevor qanchalik mustahkam bo‘lsa imorat shunchalik chidamli bo‘lganidek, mukammal boshlang‘ich ta‘lim olgan o‘quvchilar yuqori sinflarda va ta‘limning keyingi bosqichlarida hech qiynalmasdan yanada yuksak natijalarga erisha oladi. Savod

o'rgatish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarni elementar o'qish va yozishga o'rgatish metod va usullarini aniqlash va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari bilan shug'ullanadi. Savod o'rgatish metodikasining maqsadi - bolalarni boshlang'ich o'qish va yozishga o'rgatish. Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o'qish va yozish ko'nikmasi deyiladi. Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki ko'nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, o'quvchi f harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki harflarni tanib, ular ishtirok etgan so'zni o'qiy olmasligi mumkin. Yozish ko'nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya'ni yozish jarayonida partada to'g'ri o'tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo'yish kabilar ham o'rgatiladi. O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o'quvchi ruchkani qanday ushlab, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi. O'quvchini savod o'rgatish jarayonida o'qish va yozishga o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi va nutq faoliyatiga kirishishlari uchun talab qo'yilishi, o'z fikrini og'zaki yoki yozma ifodalashi uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim.

Yangi Alifbe kitobida keltirilgan har bir harf she'riy to'rtliklar hamda asosiy kichik mazmundagi qoidalar bilan izohlangan. [n] tovushi – undosh tovush. Lablar biroz ochiq. Til yuqori tishlarga tegadi. Havo og'izga kelgach, burundan chiqariladi. Demak, harfning qay o'rinda joylashuvi, qaysi tovush turiga kirishi og'izning qaysi bo'shlig'ida paydo bo'lishi haqida nazariy ma'lumotlar berilganligi o'quvchini yanada zukkolikka chorlaydi. Bunday usul harflarning bola xotirasida yanada mustahkam o'rin egallashiga zamin yaratadi. Masalan, N harfini oladigan bo'lsak, unga quyidagicha ta'rif berilgan.

Uni yasamoq oson,
Diqqat bilan qaragin.
Ikki ustun orasiga,
Qiya ustun tiragin.

Ko'rib turganimizdek, she'riy izohlash yordamida N harfining yozilish strukturasi ham keltirilgan. Alifbe manzumalari harflarning bola xotirasida mustahkam o'rin egallashida eng samarali usul hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga savod o'rgatishda o'qituvchi ma'suliyatli bo'lishi lozim. Chunki boshlang'ich sinflarda olgan bilimlari bilan o'quvchi shakllanadi.